

Stylistic characteristics and socio-pragmatic functions of incomplete sentences in Uzbek and English

Nodira ARTIKOVA ¹

Zarmed University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025

Received in revised form

10 March 2025

Accepted 25 March 2025

Available online

25 April 2025

Keywords:

elliptical sentence,
ellipsis,
stylistic functions,
pragmatics,
communicative context,
Uzbek language,
English language.

ABSTRACT

This article focuses on the stylistic features and socio-pragmatic functions of elliptical sentences used in dialogic speech in both Uzbek and English languages. The linguistic analysis centers on how such incomplete structures function within communicative contexts, their significance in social discourse, and the stylistic roles they carry. A comparative perspective highlights the similarities and differences in how these constructions operate across the two languages.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp300-304>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek va ingliz tillarida to'liqsiz gaplarning stilistik xususiyatlari va ijtimoiy-pragmatik funksiyalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

to'liqsiz gap,
ellipsis,
stilistik funksiyalar,
pragmatika,
kommunikativ kontekst,
o'zbek tili,
ingliz tili.

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida dialogik nutqda qo'llaniladigan to'liqsiz gaplarning stilistik xususiyatlari va ularning ijtimoiy-pragmatik funksiyalari lingvistik tahlil markazida turadi. To'liqsiz gaplarning kommunikativ kontekstda qanday vazifa bajarishi, ularning ijtimoiy nutq muhitidagi ahamiyati va stilistik yuklamalari qiyosiy tahlil asosida yoritilgan.

¹ Assistant Teacher, Zarmed University.

Ўзбекский и английский языки: стилистические особенности и социально-прагматические функции неполных предложений

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

неполное предложение,
эллипсис,
стилистические функции,
прагматика,
коммуникативный
контекст,
узбекский язык,
английский язык.

В данной статье рассматриваются стилистические особенности и социально-прагматические функции неполных предложений, используемых в диалогической речи узбекского и английского языков. Центральное внимание уделено лингвистическому анализу того, какие функции выполняют неполные предложения в коммуникативном контексте, а также их значение в социальной речевой среде и стилистическая нагрузка. Сравнительный анализ позволяет выявить как сходства, так и различия в функционировании таких конструкций в двух языках.

KIRISH

Hozirgi zamon lingvistikasida nutqning pragmatik va stilistik xususiyatlarini aniqlash tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, dialogik nutqda tabiiy muloqot muhitiga moslashgan shakllarning, ayniqsa, to'liqsiz gaplarning ahamiyati ortib bormoqda. O'zbek va ingliz tillarida to'liqsiz gaplar ijtimoiy va stilistik kontekstlarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi ularning pragmatik rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ lingvistika, pragmatika va stilistika fanlarining kesishgan nuqtasida turgan masalalardan biri bu – dialogik nutqda to'liqsiz gaplarning tutgan o'rnidir. Til faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan uyg'un holda amal qiladigan dinamik hodisa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, real muloqotda to'liq bo'lmagan, lekin anglashilgan gaplarning o'rganilishi tilning tabiiy ishlatilishidagi nozik jihatlarni ochib beradi. Ingliz va o'zbek tillari misolida to'liqsiz gaplarning stilistik va ijtimoiy-pragmatik funksiyalarini tahlil qilish til tizimi va nutq faoliyatining bir-biriga qanday mos kelishini chuqur anglash imkonini beradi.

Hozirda o'zbek tilshunosligida to'liqsiz gaplar masalasiga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning ingliz tili bilan qiyosiy stilistik va pragmatik jihatdan tizimli o'rganilishi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqot, tarjima jarayonlari, xorijiy til o'qitish metodikasi va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish doirasida bu masala alohida ilmiy e'tibor talab etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining qator huquqiy hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020)da zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsion metodikalarni tatbiq etish zarurligi belgilangan. Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida belgilangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da fan va innovatsiyalarning xalqaro standartlarga mos holda rivojlantirilishi, tilshunoslik sohasida qiyosiy va amaliy izlanishlarni kengaytirish vazifasi ilgari surilgan. Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarorida oliy ta'limda ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, filologiya sohasida interaktiv va muloqotga asoslangan yondashuvlarni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasida qilgan nutqida xalqlararo madaniy muloqotni mustahkamlovchi vosita sifatida tilshunoslikka asoslangan tadqiqotlarni kengaytirish zarurati ta'kidlangan.

Asosiy qism. To'liqsiz gaplar – bu tarkibiy jihatdan to'liq bo'lmagan, lekin kontekst asosida to'liq anglash mumkin bo'lgan gap shakllaridir. Bunday gaplar odatda muloqotning tabiiy oqimida, ya'ni og'zaki nutqda, suhbat, savol-javob, ijtimoiy tarmoq yozishmalari kabi kontekstlarda keng uchraydi. Ular orqali suhbatdoshlar muloqotni soddalashtiradi, vaqt va harakat tejaladi, rasmiylik darajasi yoki ijtimoiy masofa ifodalanadi.

Masalan, ingliz tilida quyidagi to'liqsiz gaplarni ko'rish mumkin:

"Coming?" (Are you coming?)

"Need help?" (Do you need help?)

"Not sure." (I am not sure.)

"Coffee?" (Shall we go for a coffee?)

Bu gaplar qisqa va ixcham bo'lishiga qaramay, to'liq kommunikativ yuklamani bajaradi. Ayniqsa, norasmiy muloqotda, masalan, do'stlar o'rtasidagi suhbatlarda, bunday shakllar muloqotni tez va samimiy qiladi.

O'zbek tilida esa:

"Keldingmi?"

"Choy ichasanmi?"


"Xo'p, bo'ldi."

"Nima gap?"

Bu jumlar ham qisqa, lekin ma'lum bir kontekstda juda to'liq ma'lumot beradi. O'zbek tilida ayniqsa bunday shakllar ijtimoiy etik mezonlarga mos keladi: yoshi kattalarga murojaat, hurmat ifodasi, samimiyat yoki hol-ahvol so'rash kabi.

Tadqiqotda o'rganilgan muhim jihatlardan biri bu to'liqsiz gaplarning stilistik funksiyalaridir. Ingliz tilida ular ko'proq minimalizm, soddalik, nutqdagi energiya tejash, informatsion pragmatizm bilan bog'liq. O'zbek tilida esa bu gaplar suhbat madaniyatining ajralmas qismi, yaqinlik, soddalik, va ko'pincha an'anaviy nutq uslubining ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-pragmatik funksiyalar nuqtai nazaridan, to'liqsiz gaplar quyidagilarga xizmat qiladi (1 – chizma):



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham to'liqsiz gaplar kommunikativ maqsadlarga xizmat qiluvchi samarali vositadir. Ular orqali suhbat ishtirokchilari fikrni qisqa ifodalaydi, kontekstga moslashadi, nutqning tabiiy oqimiga rioya qiladi va madaniy me'yorlarga muvofiqlikni saqlaydi.

1– jadval

Mezon	Ingliz tili	O'zbek tili
Stilistik xususiyat	Minimalizm, qisqalik, nutq ixchamligi, zamonaviy uslubga xos	Iliqlik, samimiylik, an'anaviy nutq uslubiga xos
Nutqdagi roli	Informatsion yukni tez yetkazish, bevosita aloqa	Muloqotni soddalashtirish, muloqot madaniyatini saqlash
Qayerda qo'llanadi	Norasmiy suhbatlar, matnli xabarlar, kino, reklama	Og'zaki nutq, hol-ahvol so'rash, kundalik muloqot
Rasmiylik darajasi	Asosan norasmiy, ammo kontekstdan kelib chiqqan holda rasmiy shaklda ham mavjud	Norasmiy va do'stona kontekstlarda keng tarqalgan
Ijtimoiy-pragmatik vazifalari	Hedging (yumshatish), aniqlikdan qochish, registrni boshqarish	Hurmat ifodasi, samimiylikni ifodalash, izzat, yosh farqiga moslashuv
Masalan	"Coming?", "Not sure", "Maybe later"	"Keldingmi?", "Bo'пти", "Balki ertaga..."
Kontekstga bog'liqlik darajasi	Yuqori – tushunish asosan kontekstga bog'liq	Juda yuqori – kontekst va madaniy stereotiplarga qattiq bog'langan
Til tashqarisidagi omillarga munosabat	Situatsiyaviy va funksional yondashuv	Madaniy, ijtimoiy va yoshga oid mezonlar asosida

Umuman olganda, to'liqsiz gaplar har ikki tilda ham muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ularning stilistik va pragmatik tahlili esa tilning ijtimoiy tabiatini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'liqsiz gaplar (elliptik konstruktsiyalar) nafaqat sintaktik soddalikni, balki chuqur kommunikativ va sotsiopragmatik vazifalarni ham bajaruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida bu gap turlarining qo'llanish xususiyatlari, kontekstual aniqlanish darajasi va stilistik vazifalari o'zaro muayyan o'xshashlik va farqlarga ega.

Har ikki til uchun umumiy jihat shuki, to'liqsiz gaplar dialogik nutqning tabiiy komponentidir va ular orqali muloqot tezligi, ifoda ixchamligi va kontekstga moslashish ta'minlanadi. Shu bilan birga, ularning ishlatilishida har bir tilga xos milliy-madaniy omillar va ijtimoiy-pragmatik normalar asosiy rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari xorijiy til o'qitish metodikasi, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvopragmatika sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, til o'rganuvchilarning ijtimoiy kontekstga mos muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirishda to'liqsiz gaplar va ularning kommunikativ vazifalarini anglash muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fillmore C.J. Frame Semantics and the Nature of Language. In: Language, Vol. 61. Berkeley: University of California Press; 1985. – 528 p.
2. Grice H.P. Logic and conversation. In: Cole P, editor. Syntax and Semantics, Vol. 3. New York: Academic Press; 1975. – 458 p.
3. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London: Longman; 1976. – p. 92–115.
4. Lakoff G. The Political Mind: Why You Can't Understand 21st-Century American Politics with an 18th-Century Brain. New York: Viking Press; 2008. – p. 120–145.
5. Levinson S. C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge
6. University Press; 1983. – 230 p.
7. Zholshayeva A.K. The Pragmatics of Elliptical Sentences in Kazakh and Russian. Almaty: Publishing House of the Kazakh University; 2005. p. 32–46.